

UMUMTA’LIM MAKTABLARINING TA’LIM TIZIMIDA TARBIYANING O‘RNI.

Primqulova Zarina Barotovna

Buxoro viloyati Buxoro shahar 30-umumiy o‘rta ta’lim maktabi

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ta’lim tizimida tarbiyaning o‘rni, bu borada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar, muammo va yechimlar haqida to‘xtalib o‘tilgan.*

Ushbu maqolani yozishdan maqsad: Yoshlar tarbiyasi bu eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda ularni to‘g‘ri yo‘lga solish uchun eng asosiysi ularga milliy qadriyatlarimizni onglariga yetuk tarzda singdirishning usullari, kelgusi vazifalarni belgilash.

Natija: *Davlatning gullab-yashnashi, xalqning farog‘ati oliyjanob xulq-odobga bog‘liq, oliyjanob xulq-odob esa tarbiya tufayli ekanligini, tarbiya, asosan, bizning dilimizga jamiyat uchun foydali bo‘lgan fazilat urug‘larini sochishida umumta’lim maktablarining o‘rnini ko‘rsatish.*

Kalit so‘zlar: *milliy qadriyatlar, tarbiya, xulq-odob, ma’naviyat, ajdodlar merosi.*

Ma’lumki, hozirgi XXI asr axboratlashgan jamiyatda tarbiyaning o‘rni shu darajada pasayib kettiki, shuning uchun bu masalaning dolzarbligi har-xil ommaviy axborotlarning ko‘payib ketishi natijasida yoshlar ongiga ta’sir o‘tkazib ularning tarbiyasiga tasir o‘tkazmoqda hamda turli xil ommaviy saytlarining ko‘payib unda har-xil tarbiyasiz narsalarning chiqishi u ham yoshlar tarbiyasiga katta tasir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa internet tarmoqlarida turli xil tarbiyasiz hamda ommalashib ketgan turli xil tarbiyasiz videolarning chiqishi, har xil kiyimlarini kiyilishi bu ham biz yoshlar tarbiyasiga katta tasir ko‘rsatmoqda. Yoshlar tarbiyasi bu eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda ularni to‘g‘ri yo‘lga solish uchun eng asosiysi ularga milliy qadriyatlarimizni onglariga yetuk tarzda singdirishdir. Biz o‘zbek xalqimiz, azal azaldan bizning tarbiya biz uchun eng muhim fazilatimiz hamda g‘ururimiz bo‘lib kelgan. Bizning tarbiyamiz haqida gap borar ekan biz milliylikimiz o‘zimizning boy qadimiy merosimiz orqali o‘z tarbiyamizni ochiq oydin faxrlanib aytsak arziydi. Ammo biz bugun yoshlar shunga munosib bo‘lyapmizmi yoki yo‘qmi degan savol bizni o‘ylantiradi. Demak, buyuk allomalar tug‘ulgan muqaddas zamin ekan yurtimizga munosib tarbiyali shaxs bo‘lib yetishaylik. Davlatning gullab-yashnashi, xalqning farog‘ati oliyjanob xulq-odobga bog‘liq, oliyjanob xulq-odob esa tarbiya tufaylidir. Tarbiya, asosan, bizning dilimizga jamiyat uchun foydali bo‘lgan fazilat urug‘larini sochmog‘i lozim. Tarbiya faqat inson zehni o‘stirish va unga ma’lum hajmdagi bilimni singdirishgina emas, balki u insonda mehnatga tom ma’nodagi chanqoqlik hissini uyg‘otmog‘i lozim, busiz odam hayotda na e’tiborli va na baxtiyor bo‘la oladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov takidlaganlaridek “Har qanday jamiyatda hamisha ta’lim-tarbiyaga ehtiyoj seziladi. Zero, ta’lim-tarbiyasiz barkamol insonni shakllantirib bo‘lmaydi. Barkamol insonlarsiz esa, jamiyat ham taraqqiy etmaydi. Endi ta’lim-tarbiya, hayot jarayonining hamma sohalarini, jabhalarini qamrab olmasa, u o‘zining komil inson tarbiyasida juda katta ijtimoiy mavqeqini egallay olmaydi. Insonning jamiyatdagi o‘rni uning moddiy boyliklari bilan emas, balki yuksak ma’naviy qiyofasi bilan belgilanadi. Insonni inson ekanligini namoyon etuvchi, uni jami mavjudotlardan farqli ekanligini isbotlab turuvchi qudratli kuch

– ma’naviyatdir. Guvohi bo‘lganimizdek, bizga yot qarashlarni, millatimizga xos bo‘lmagan g‘oyalarni, bir so‘z bilan aytganda, ma’naviyatsizlikni, axloqsizlikni targ‘ib qilib chiqqan ayrim ayollarning “xurmacha qiliqlari” ijtimoiy tarmoqlarda ko‘plab e’tirozlarga sabab bo‘ldi. Bu birgina misol emas. Kundalik turmushda, ayniqsa, hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan ijtimoiy tarmoqlarda bu kabi “tasodifiy ko‘ngilsizliklar”ga ko‘p bora duch kelishimiz odatiy holga aylandi. Insonda ma’naviy dunyoqarashning o‘sib borishi albatta, biz bot-bot ta’kidlaydigan oiladagi tarbiyaga borib taqaladi. Har qanday yuksalish yoki tanazzul tarbiya bilan bog‘liq ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz. Oilada sog‘lom muhit barqaror bo‘lmas ekan, farzandning yorug‘ kelajagiga umid bog‘lash noo‘rin. Ota va ona tarbiyada ibrat bo‘la olmagan oilada o‘sgan o‘g‘il-qizning ma’naviyati ham haminqadar bo‘lib borishi, shubhasiz. Oiladagi bosh burch va majburiyat unutilgan, otaning ota sifatidagi o‘rni yo‘qolgan yoki ona tirikchilik ilinjida ko‘chadan ortmayotgan holatlarning uchrayotgani farzand tarbiyasiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Ana o‘shanda bizni yuragimizga og‘riq solayotgan, ma’naviyatsizlik, tarbiyasizlik axloqsizlik, andishasizlik ildiz ota boshlaydi. Ajdodlarimiz asrlar davomida sevib mutolaa qilgan “Pandnoma”, “Siyosatnoma”, “Qobusnoma”, “Axloqi muhsiniy”, “Axloqi jaloliy”, “Axloqi nosiriy”, “Qonuni hikmat”, “Nigoriston”, “Bahr al-ulum”, “Kachko‘li sultoniyy”, “Jovidoni xirad”, “Bistu se hikmat”, “Hikoyoti dilpisand”, “Odob as-solihin”, “Turkiy “Guliston” yoxud axloq” singari asarlar shular jumlasidandir. Ushbu nodir asarlarda avval axloq-tarbiyaga oid biror so‘z va tushunchani izohlab, keyin unga o‘quvchi amal qilish uchun naqliy va axloqiy dalillar keltiradi. Umuman ularning mazmun-mundariyasi, ularda ilgari surilgan ilg‘or g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yigindisi. Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o‘tadi. Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan. Yuqori sinflarda bolalar shaxs bo‘lib, jamoa bo‘lib shakllanadi. Ayni o‘sha paytda ularni o‘zlari o‘rgangan muhitdan ajratib qo‘ymaslik kerak. Bu yoshlarning ruhiyatiga, davomatiga, oxir-oqibatda ta’lim-tarbiyasiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Shu bois ta’lim jarayonining usluksizligini ta’minlash, o‘quv dasturlarini takomillashtirish zarur.



Xullas, tarbiya bu insonlar o‘rtasidagi oddiy munosabatlarda ham namoyon bo‘ladi, bizning maqtasa arzugulik o‘tmishimiz bor ekan demak biz yoshlar tarbiyasi hamda ularni tarixiy ilmiy asoslarini chuqur singdirib olishimiz zarur ekan. To‘g‘ri insonlarni sen tarbiyali bo‘lishing kerak deb majburlab tarbiyali qila olmaymiz lekin biz ularni ongiga o‘zimizning milliy odob axloqimiz orqali asta sekin tushun tira olamiz. Hech bir ish qiyinchiliklar siz bo‘lmaydi demak biz ham tarbiyaviy jarayonga kirishgan ekanmiz qo‘limizdan kelgancha doimo olg‘a harakat sari yuramiz hamda maqsad sari yeyamiz. Tarbiyali inson bo‘lishga harakat qilar ekan miz bu borada doimo olg‘a yuramiz hamda o‘zimiz bilan birga qolganlarni ham jalb qilamiz hamda Vatanimizga munosib o‘g‘il-qizlar bo‘lib yetishtiramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Yo‘ldoshev, O‘tkir Jumaqo‘zievich. "KOMMUNIKATIV DIDAKTIKA: MOHIYAT VA MAZMUN." 2023-yil.
2. Ibrohimov A., Sulonov X., Jo‘rayev N. Vatan tuyg‘usi.- T.: 1996-y
- 3.Ma‘naviyat – qalbim quyoshi. Toshkent - 2013-yil
4. Internet saytlari: www.Ziyonet.uz ,www.edu.uz